

BADIY MATNDA MONOLOG VA DIALOG MUNOSABATI (Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romani misolida)

Madirimov Bahrom Abdullaevich-Toshkent iqtisodiyot universiteti To'rtko'l fakulteti o'qituvchi

Annotatsiya. Maqolada monolog va dialog vazifadoshligi, badiy nutq tiplari o'ziga xosligi Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romani misolida tahlillanadi. Unda ichki nutq, tashqi nutq, parallel nutq tushunchalariga ta'rif beriladi, matnda shakl va mazmun, ifoda va tasvir, g'oyaviy hamda estetik munosabat xususida mushohada yuritiladi.

Kalit so'zlar: monolog, dialog, ichki nutq, tashqi nutq, parallel nutq, tasvir.

СООТНОШЕНИЕ МОНОЛОГА И ДИАЛОГА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

(На примере романа Абдуллы Кадири «Мехробдан чаён»)

Мадиримов Бахром Абдуллаевич – преподаватель Торткольского факультета Ташкентского экономического университета.

Абстракт. В статье анализируются монологические и диалогические функции, своеобразие художественных типов речи на примере романа Абдуллы Кадири «Скорпион с алтаря». Определяет понятия внутренней речи, внешней речи, параллельной речи, наблюдает за формой и содержанием, выражением и образом, идеально-эстетической установкой в тексте.

Ключевые слова: монолог, диалог, внутренняя речь, внешняя речь, параллельная речь, образ.

THE RELATIONSHIP OF MONOLOGUE AND DIALOGUE IN ARTISTIC TEXT

(In the example of Abdulla Qadiri's novel «Mehrobdan chayon»)

Madirimov Bahrom Abdullaevich-teacher at the Tortkol Faculty of the Tashkent University of Economics

Abstract. In the article, the monologue and dialogue function, the uniqueness of artistic speech types are analyzed on the example of Abdulla Qadiri's novel «The Scorpion from the Altar». It defines the concepts of internal speech, external speech, parallel speech, observes the form and content, expression and image, ideological and aesthetic attitude in the text.

Key words: monologue, dialogue, internal speech, external speech, parallel speech, image.

Kirish. Monolog badiiy nutq tipi sifatida qahramon his-tuyg'usini burilish pallasiga yo'naltiradi, munosabat ziddiyati (tasdiq-inkor) vositasida voqe bo'ladigan uslubiy birlikda dunyoqarash ijtimoiy-psixologik kolliziyaga uchraydi. Iqror, murojaat, ilinj, urg'u, istak va imkon sintezi natijasida rivoya shakli ijtimoiy belgilarni xususiylashtiradi. Yaxlit tasvir-ifoda aslida qahramon bayonini kun tartibiga qo'yadi, unda muqoyosa hamda nisbat raqobatga kirishadi, unda ichki nutq va tashqi nutq muqobililik kasb etadi:

Nigor oyim Anvar pinjiga kirib olib, o'z yo'lig'a sola boshladi. Maoshi hammasini maxdumga bermaslikka, shunga o'xshash kam-ko'stlarga ham yaratib turishg'a undar edi. Anvar andishasini rad qilib: "Har qancha bersang ham dadasi ola beradir. Lekin bergenningni sen bilan bizga misi ham yuqmas. Shunday bo'lg'andan keyin, ishni o'ylab

qilish kerak”, der edi. Chunki Nigor oyim erining Anvarga qattig‘ botina olmaslig‘ini sezar edi. Shunday bo‘lsa ham Anvar yetti-sakkiz oyg‘acha topqanini maxdumga berib, duosini olib turdi. Lekin maxdum shunchalik daromad bilan ham eski tabi’atini bir zarra o‘zgartmas, hamon eski tos, eski hammom: har kun suyuq osh, xudo yorlaqag‘an kun ozodliqning palovi, shunda ham Anvar kech kelib sovig‘an oshni yer, uyda issig‘ non yopilmas, hamisha panjshanba kun yig‘ilg‘an non suvi qochib, taraqlab kelasi panjshanbag‘acha kafolatni o‘z ustiga olar edi. Bora-bora Anvar ham bu holdan siqilib, Nigor oyim kengashicha ish qilmoqqa majbur bo‘ldi. Oltin berib quruq duo va minnatdorchilik olishdan, duosiz yeb-ichishni a’lo ko‘rdi. Uyga go‘sht va boshqa masallig‘ olib berib, xohlag‘an taomini buyurib turdi; o‘zi yaxshi kiyanganidek, Nigor oyim, Ra’noni ham yaxshi kiyintirdi. Nodirda opasi, jiyaniga kiyim olib berdi; ikki tilloni Marg‘ilonda og‘rib yotqan Mohlar oyimg‘a ham sovg‘a-salom qilib yubordi[2].

Muayyan axborot hajmini poetik tafakkurda qayta ijodiy ishlaydigan, boyitadigan hamda tartibga soladigan nutq tiplari, birinchidan, tasavvur va imkoniyatni tenglashtiradi, ikkinchidan, tasvir predmeti hamda ifoda sub‘ektini maqsadga yo‘naltiradi, uchinchidan, murojaat va munosabatni yaxlitlashtiradi, to‘rtinchidan, rivoya uslubi va vazifasini belgilaydi. Shu ma’noda, adabiy talqinda dialog va monolog stilizatsiyasi tahlil malakasi teranlashuviga zamin hozirlaydi, dunyoqarashlararo tafovutni tayinlaydi:

Asr namozi uchun masjid jilovxonasiq‘a endi uch kishi yig‘ilg‘an edi. Jilovxona to‘rida o‘lturgan qora to‘nlik, o‘ttuz yoshlar chamasida rangsiz va yoshlig‘iga qaramasdan quyuq soqolini bahaybat o‘sturib, bir burdagina yuziga ot to‘rba osqan kabi bir kishi edi. Uning yonida bo‘z yaxtak bog‘ichini osiltirib, xandalandek bo‘qog‘i bilan o‘ng tomog‘ini ziynatlagan o‘rta yashar yana bir “husni Yusuf” ko‘rinar edi. Uning qatorida oshlovdek chozuq yuzlik, oq bo‘z ko‘ylagi yerdan to‘rt ellik ko‘tarilib, bo‘z sallasi gardani aralash o‘ralg‘an uchunchi nozanin o‘lturar edi[2].

Badiiy kommunikatsiya tizimida dialog ma’no ustamasini ta’minalash, lavha va tafsilot yig‘iqligini markazlashtirish, ifoda yurishlari va tasvir ruhiyatini uyuştirish vazifasini bajaradi. Rivoya texnikasi o‘ziga xosligi uslubiy tafovut hosil qiladi, aslida ijodiy mustaqillik namoyon bo‘lishi poetik nutq tiplari amaliy ishlanmasiga bog‘lanadi. Unda tahlil va talqin, ifoda va tasvir bir-biriga qorishib ketadi, tafsilot hamda taassurotni aniqlikka yo‘llanma semantik-stilistik sathlar birligini taqozolaydi.

Monolog va dialog nutq tipi sifatida ichki, tashqi hamda parallel ifodani shakllantiradi, qorishiq holatda namoyon bo‘ladigan “parallel nutq – qahramon ichki va tashqi nutqlarining bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lishi. Bu nutq shakli ko‘pincha qahramonlararo dialog jarayonida kuzatiladi va ichki nutq bunday hollarda suhabatdoshga bo‘lgan munosabatni bildiradi”[3]. Unda so‘zlashuv uslubi tartibi, fikr-mushohada salmog‘i hamda hissiy-aqliy idrok ixchamlashadi, ortiqcha tafsilotlarga chek qo‘yadigan muloqot shaklida mohiyat ochiq va aniq bayon qilinadi, tahlil malakasi va talqin teranligi bir-biriga moslashadi, ifoda yurishi hamda tasvir yo‘sini markazlashadi:

Og‘acha oyim hanuz Gulshanga iltifotsiz, O‘rmonbek bilan so‘zlashmakda edi:

- Juda sho‘x bo‘libsan, o‘g‘lim. Men seni otaxoningga chaqib bir urdiray.
- Budana bersangiz sho‘xliq qilmayman.
- Budanalaringni o‘ldirib bitirding-ku, zolim, budanalarni yana qaydan olayliq.
- Men o‘ldirmadim, o‘zлari o‘lib butdilar.
- Ziyrakni nega urding?
- Ziyrak menga budana topmadi.

Ona va farzand suhbati hayotiy-maishiy xarakter kasb etadi, volida o‘g‘lini beozor tarzda koyiydi. Gap O‘rmonbek sho‘xligi, aslida, zulm aks etayotgan fe'l-atvori xususida boradi. Yosh shahzoda munosib tarbiya topishi lozim, biroq “qush uyasida ko‘rganini

qiladi”. Oddiy mehnatkash bolasi bedana urishtirsa, bezorilik sifatida baholanadi, bo‘lajak taxt sohibi uchun esa “sevimli mashg‘ulot” vazifasini bajaradi. Odatda, muloqotda, teng sub’ekt munosabati yoki sub’ekt va ob’ekt aloqasi ustuvorlashadi. Ikkinchchi holatda tergash, bosim o‘tkazish va hisob so‘rash ohangi o‘z ifodasini topadi:

Og‘acha oyim eshik yonida tik turg‘an kanizg‘a qaradi:

— Kel, Misqol, — dedi va O‘rmonbekning orqasini siladi.

— Sen g‘umang bilan o‘ynab kir, budanani ertaga topdirarmiz.

Kaniz O‘rmonbekni yetaklab chiqqa boshladi.

— Oldimg‘a hech kim kirmasin, — dedi Og‘acha oyim. — Eshikni mahkam yopib chiq.

Endi suhbat ishtirokchilari o‘zgaradi, O‘rmonbekni kaniz Misqolga topshirgach, Gulshan hamda Og‘acha oyim o‘rtasida dialog kechadi. Odatiy hol-ahvol so‘rashdan keyin muddaoga o‘tiladi, malika xon qo‘shmachisidan endi saroyga kanizak keltirmasligini talab qiladi. Garchand, qahramonga talab yoqmasa-da, malikaga e’tiroz bildirmaydi, uning iltifotiga ham sazovor bo‘ladi. Muloqot xulqi keskinlashuvi hukmdor dallisini parishon qiladi.

Adabiyotshunos va munaqqid badiiy asardagi mavjud obrazlarni, badiiy tasvir vositalarini, asarning syujeti, kompozitsion qurilishi, yondosh san‘at turlari yoki yondosh ilm sohasi bilan aloqasini chuqur tushunishi va baholi qudrat tushungarishi lozim. Chinakam san‘at namunasi bo‘lgan badiiy asar mazmun-mohiyati, asos-negizi, u g‘oyaviy-badiiy jihatdan monofonik yoki polifonikmi - bundan qagiy nazar, adabiyotshunos-munaqqidning fikr maydonidir. Yezuvchi yaratgan bu ajib maydonda mavjud adabiy-badiiy unsurlar ustida bat afsil fikr yuritmasdan turib muallifga «aql o‘rgatash» missiyasi, yozuvchi oldiga qandaydir talablar qo‘yish huquqi hech kimga berilgan emas[4]. G‘oyaviy va estetik talqin muvozanatini saqlash munaqqidga xolis mushohada yuritishga imkon beradi, ijtimoiy belgi-xususiyatlarni urg‘ulash hamisha ham natija beravermaydi. Badiiy asar matni o‘zida sir-asrорlarni yashiradi, mohiyatga kirish esa yuksak bilim va malakaga bog‘liq:

Anvar yuzini tutib berdi. Ra’no bo‘shqina uning yuziga urib qo‘ydi.

— Agar shu gal ham yengsam, — dedi Anvar achinib, — men seni urub o‘lturmas edim...

— Nima qilar edingiz?

— Endi foydasi yo‘q.

— Ayting-da, agar menga ham ma’qul bo‘lsa, urg‘anim hisob emas, bo‘shqina urdim-ku.

— Lekin sen uni qilolmaysan...

— Nega qilolmayman, qani ayting-chi.

— Qilolmaysan... — deb kuldi va bir oz aytishka kuchlanib turdi. — Men... men sening yuzingga qo‘lim bilan emas, og‘zim bilan urar edim...

Anvar va Ra’no orasida kechgan muloqot bir-biriga talpinayotgan ikki dil rozini anglatadi, romantik kayfiyat yoshlar ko‘nglida aks-sado beradi.

Adib yigit va qiz munosabatlarini alohida mehr bilan tasvirlaydi, sof tuyg‘u paydo bo‘lishi va rivojini hayotiy omillar vositasida anglatadi. Bir-biriga har tomonlama mos keladigan ishq qissasida ajib bir harorat mavjud, ijodiy musobaqada g‘olib chiqqan qiz Anvar yuziga beozorgina urib qo‘yadi, noz-istig‘no, hayo-ibo tuyg‘usi yigitda zavq uyg‘otadi: jur’at ana shu hissiyot mahsuli, Ra’noni qizarishga majbur etadi. Muallif dialog shakli yordamida mushohada yig‘iqligini ta’minlaydi va g‘oya yorqinligiga erishadi.

Badiiy falsafa ko‘zi bilan qaralsa, muayyan asardagi oddiy, tuyqus ko‘zga tashlanmaydigan jumla, qahramonga berilgan tavsif katta ma’no yukini tashib, xuddi

sehrgar tayoqchasidek badiiy asarga yangi qiyofa kasb etishi mumkin[5]. Falsafa va mantiq adabiyotda faqat ruhiy tahlil vositasi vazifasini bajaradi, ijodiy dunyoqarash individual mohiyatini ta'minlash poetik mahorat tushunchasiga bog'lanadi. Badiiy nutq so'z semantik-stistik jihatlarini o'zgartiradi, ma'no maxraji «xuddi sehrgar tayoqchasidek» unga qo'shimcha estetik yuk yuklaydi. Shu nuqtai nazardan, san'at namunasi ijod ruhiyatini yangilash barobar poetik ifoda o'ziga xosligini ham belgilaydi:

Qobilboy bu so'zni eshitkuchi qulqlarig'a ishonmag'andek, Anvarning yaqinrog'ig'a surildi.

— Nima deyapsiz, Anvar, men yaxshi onglamadim?

Anvar yana o'sha so'zini takrorladi. Qobilboy endi bir oz orqasig'a qochib ko'zini katta ochdi va bir necha vaqt qotib turdi...

— Siz nima qilmoqchisiz, uka. O'z oyog'ingiz bilan... Yo'q, bu bo'limg'an gap. Balki bu — xonning unga popisasidir, shu hiyla bilan maqsadig'a yetmakchidir... Qo'ying bu gapni, uka, qo'ying... Anvar hamon boyag'i vaziyatda, ko'zini bir nuqtag'a tikib, sandal ustidagi qog'ozni og'asi yaqinrog'ig'a surib qo'ydi...

— Basharti popisa bo'lmasa?.. — dedi Anvar. — Xon popisani bilmaydi, uning hamma harakati jiddiy. Shunday, siz bu xatni ertaga uning qo'lig'a berasiz va undan har bir yordamingizni ayamaysiz.

— Bu aqilliq gap emas, uka...

Anvar Mirzo va Qobilboy orasida kechgan muloqot voqealar rivojini tezlashtiradi, yigit zindonda yotgan Sultonalini qutqarishga jazm qiladi. Qobilboy bo'lsa bu muvaqqat chorani aqlsizlik sifatida baholaydi, keskin munozara Anvarning o'rdaga yo'l olishi bilan tugaydi. O'z do'stini o'lim changalida qoldirishni istamagan asar qahramoni "qo'rqinch bir jasorat" ko'rsatadi, Xudoyorxon bilan yuzma-yuz keladi. Savol-javob qisqa va dangal, ravshan va yorqin, Anvar mirzo o'limga hukm qilinadi. Shu tariqa fojea sari yo'naltirilgan mantiq yigit do'stlari tomonidan qutqariluviga tutashadi.

«O'zbekning o'zligi» kitobi muallifi M.Qo'shjonov Anvar va Ra'no munosabatlariga o'ziga xos yondashdi. Ko'proq xarakterlar mantig'iga e'tibor berib, adib romantik qahramonlaridagi ajib chizgilarni reallapggirdi. Olim Anvar tabiatiga xos vazminlik, oljanoblik, sezgirlik kabi qator fazilatlarni ilg'ab oldi. Bosh qahramonlar boshiga yopirilib kelayotgan fojeani kuzatar ekan, Anvar sustkashligini, natijada Ra'noning jasorati ortganligini ko'rди. Gap shundaki, Anvar muhabbat xususidagi kitobiyrok tuyuladigan, romantik bo'yoqlarga yo'g'irilgan fikrini izohlashda M.Qo'shjonov ham mubolag'aga berildi. Anvarning: «Ishq davosi avom o'ylagancha vasl emas - hajrdir. Zero, vasl ishq o'tini so'ndirguvchi, hajr esa kamolatga erishdirguvchidir», degan mulohazasi ustida to'xtalib: «Gap nimada ekan, tasavvuf ta'sirimikin? Ehtimol, shundaydir» deya tasdiqli savol-javob qiladi. Bir oz o'tib: «Tasavvuf ta'siri Ra'noda ham yo'q emas edi», degan fikrni ilgari suradi. To'g'ri, garchi Anvarning ishq xususidagi hikmatlari tasavvuf ahlining qarashlarini eslatsa-da, Anvar va Ra'noning ishqiy tushunchalarini bu falsafiy oqimga bog'lab talqin etish bir oz notabiyydek tuyuladi. Anvar vasl va hajr xususidagi o'sha hikmatini ilojsizlik tufayli ma'rifatli inson xayoliga kelgan fikr[3] tarzida izohlash maqsadga muvofiq, tasavvuf ta'limoti keng tushuncha, uning suluk va tariqatlari shu qadar murakkab va rang-barang, har bir jumla, gap yoki tafsilotni so'fizm an'analariga bog'lash ishonchni oqlamaydi. Ishq qissasi realistik xarakteri masala mohiyatini oydinlashtirishga xizmat qiladi:

Kun qiyomg'a yaqinlashqan. Yana birar soatdan so'ng Sultonalini o'limga olib chiqar edilar. O'rda hech bir o'zgarishsiz, odatiy takallufida harakatlanar, baxmal va zarrin kiygan sarkardalar ichkari bilan tashqarig'a to'xtovsiz qatnashib turar edilar. Bu kungi devonda bir necha muhtaramlar chaq-chaqi bilan yana boshqacha ruh, ikki kundan beri

yana devon xizmatini ado qila boshlag'an bir muhtaram yosh olim muloyim siymosi mirzolar orasini yana munavvar etkan va yuzidan g'olibiyat ma'nosi chakillab turg'an ikki muftining mutoyabalariga yosh olim mayin nigohi har zamon iljayar edi.

— Uning uchun ikki yo'l, — der edi Shahodat mufti, — yo ammazodasini topib berish, yo o'lim, faqat ikki yo'l.

— Albatta shunday, — deb uning so'zini tasdiq qilar edi mulla Abdurahmon.

— Topib berganda ham yana jazo bor, bu tarafi ham unutilmasin.

— Yana qanday jazo? — deb ajablanar edi mulla Kalonshoh. — Topib berishni bo'ynig'a oldimi, bas, bu so'z Anvarni qochirg'an ham o'zim, degan iqrordir.

Bu biyron javob mulla Kalonshohga yoqinqiramas edi.

— Topib berishni bo'yinga olmasliq, gunohsizlik degan so'zdir. Darhaqiqat, Anvarning qaerg'a ketkanini bilmasa, qanday qilsin? Bas, bu holda Sultonali qatl qilinadir, gunohsiz o'ldiriladir... Bunga kim sabab, uning qoni kimni tutadir? Men xuddi ana shunisiga hayronman-da[3].

Uchta qahramon saroy mahkamasida suhbatlashib o'tiribdi, adib har bir obraz mantig'iga o'ziga xos tarzda yondashadi. Shahodat mufti va Abdurahmon domla fikri yakdil, biroq mulla Kalonshohda amalga oshirilgan qabih rejadan afsuslanish hissi seziladi. Muallif inson yomon bo'lsa-da, unda yaxshi fazilatlar bo'lishi mukinligini shu personaj yordamida tasdiqlashga intiladi: "Anvar qaerg'a ketkanini bilmasa, qanday qilsin? Bas, bu holda Sultonali qatl qilinadir, gunohsiz o'ldiriladir... Bunga kim sabab, uning qoni kimni tutadir? Men xuddi ana shunisiga hayronman-da». Gunoh azobini his qilish qahramon butunlay odamgarchilikdan chiqmaganini ifoda etadi, pushaymonlik tuyg'usi aslida odamzodni xatolardan muhofaza etadi.

Umuman, Abdulla Qodiriy «Mehrobdan chayon» romanida tarixiy ruhiyat realizmini qahramon dunyoqarashiga singdiradi, ichki nutq qatimida aks etgan falsafa aslida tuzum va tutumga qaratilgan ijodkor munosabatini aks ettiradi. Uzluksiz jarayon (til-tafakkurnutq) bog'lanishida muallif personajlar rivoya shakliga muayyan vazifalar yuklaydi, achchiq zaharxanda, kulgi, grotesk, kinoya va kesatiq fosh etish hofizasi hayotni poetik tadqiq etish yondosh ko'rinishlarini hosil qiladi. Shakldan mazmunga, mazmundan g'oyaga o'tish vositasida adib realistik tasvir imkoniyatlarini kengaytiradi.

ADABIYOTLAR:

Мирзиёев Ш.М. Тақијий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

Абдулла Қодирий. Мехробдан чаён. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994.

Баҳодир Карим. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2006.

Раҳимов З. «Кўхна дунё» романи поэтикаси. – Фарғона, 2005.

Сувон Мели. Сўзу сўз. – Тошкент: Шарқ, 2020.